

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA KICHIK BIZNESNING O'RNI VA AHAMIYATI

Uzun Nozima¹

Oriental universiteti

KEYWORDS

kichik biznes, moliyalashtirish, kredit, investitsiya, iqtisodiy barqarorlik, pul oqimi, bank tizimi, O'zbekiston.

ABSTRACT

Mazkur maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning tutgan o'rni, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi roli hamda moliyalashtirish mexanizmlarining ahamiyati yoritilgan. Muallif kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda kreditlash, investitsiyalar, davlat ko'maginging usullari va ularning samaradorligini tahlil qiladi. Shuningdek, resurs yetishmovchiligi, risk va kapital aylanishi masalalari doirasida amaliy tavsiyalar berilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15650664**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmining kengayishi, qo'shimcha ish joylarini yaratilishi va aholini real daromadlarini o'sishi, avvalombor makroiqtisodiy barqarorlikni talab etadi.

Shu bois, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda mamlakatda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilayotgan mahsulotlarni yalpi ichki mahsulotdagi hissasini, aholi bandligini ta'minlashdagi samarasini oshirish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxona o'zini saqlab qolish va o'sib borish uchun ishlab chiqarishni yanada samaraliroq tashkil etish yo'llarini izlashga majbur. Bu bugungi kunda shunchaki istak emas, balki muqarrar zarurat. Ayniqsa, kichik va o'rta biznes egalari uchun. Haqiqat shuki, kichik va o'rta korxonalar hayotiy siklining deyarli barcha bosqichlarida – tashkil etilishidan tortib kengayishigacha – turli xil to'siqlar, muammolar va noaniqliklar ro'y beradi. Shu sababli, oddiy bozor usullari bilan cheklanib qolmasdan, tadbirkor samaradorlikni oshirishning boshqa, noan'anaviy yo'llarini ham izlashi kerak bo'ladi.

Bu yo'llar quyidagilarni o'z ichiga oladi:


- Ilg'or texnologiyalarni joriy qilish, zamonaviy uskunalardan foydalanish – bu nafaqat mahsulot sifatini oshiradi, balki tannarxni pasaytirishga ham xizmat qiladi.

¹ Oriental universiteti magistranti

- Xomashyo va materiallarning zamonaviy turlaridan foydalanish – ishlab chiqarish tejamkor bo'lishi uchun shart.
- Asosiy fondlardan to'g'ri foydalanish – mavjud aktivlardan maksimal foyda olishni anglatadi.
- Aylanma mablag'lar aylanish tezligini oshirish – bu naqd pul oqimini tiklaydi, ishlab chiqarish barqarorligiga hissa qo'shadi.
- Mehnatni samarali tashkil etish – bu yerda jamoaviy ish muhitini yaratishdan tortib mehnat taqsimotigacha bo'lgan barcha jihatlar muhim.
- Menejment fanidagi ilg'or yutuqlarni amaliyotda qo'llash – bu strategik qarorlar sifatini yaxshilaydi.
- Mahalliy va xorijiy kompaniyalar tajribasini chuqur o'rganish va joriy etish – bevosita raqobatbardoshlikni oshiradi.
- Davlat tomonidan taklif etilayotgan moliyaviy yordam va imtiyozlardan oqilona foydalanish – ko'p hollarda bu omilni to'g'ri baholamaslik katta xatolik bo'ladi.

Tadbirkorlik bu – raqobat bilan birga yashash san'ati. Kim ko'proq moslasha olsa, u uzoqroq yashaydi.

Hozirgi iqtisodiy sharoitda faoliyat yurituvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish shakllarini aniqlash dolzarb vazifalardandir. Ko'pchilik iqtisodchilar tomonidan xususiy va kichik korxonalarni moliyalashtirish asoslari munosabatlarining to'g'ri tashkil etilishi har qanday ishlab chiqarish tizimi samarali faoliyatining garovi ekanligini ta'kidlaydilar.



Kichik biznes subyektlari faoliyatini moliyalashtirish manbalari tasnifi²

Bizning fikrimizcha, iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyalashtirishni tashkil etishning ilmiy asosi va mexanizmini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish zarurdir.

Mazkur mexanizm tadbirkorlik subyektlarida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ehtiyojlarini ular ishlab chiqarish dasturida belgilangan muddat va miqdordagi pul mablag'lari bilan ta'minlashning muhim quroli sifatida ko'rib o'tilishi kerak. Bunda mulk shaklidan qat'iy nazar barcha korxonalarga moliyalashtirishni tashkil etishda teng huquqlar berilishi lozim.

Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishda biz ko'pincha faqat katta investitsiyalar, ya'ni kapital qo'yilmalar haqida o'ylaymiz. Ammo, aslida, moliyalashtirish faqat ana shu "katta pul"lar bilan cheklanmaydi. Aylanma kapital, xususan zaxiralar, qayta sotiladigan mahsulotlar va boshqa omillar orqali ham tadbirkorlikni yuritish mumkin. Noan'anaviy, ammo juda foydali moliyaviy manbalarni ham esdan chiqarmaslik kerak. Masalan:

- Taqsimlanmagan foyda – foydani darrov sarflamasdan, uni aylanmaga qayta jalb qilish
- Amortizatsiya ajratmalari va ichki zaxiralar – kompaniya ichidagi yashirin imkoniyatlar
- Bank tizimi va ixtisoslashmagan kredit-moliya institutlari – alternativ kredit manbalari
- Davlat tomonidan investitsiya maqsadlarida ajratilgan markazlashtirilgan mablag'lar – maqsadli va nazorat ostidagi moliyalashtirish
- Xalqaro tashkilotlar va xorijiy investorlar kredit va qarzlar ko'rinishida beradigan mablag'lar
- Qimmatli qog'ozlar chiqarish orqali jalb qilingan mablag'lar

Bularning barchasi moliyalashtirishning muqobil usullaridir. Boshqacha aytganda, pul faqat bank kreditida emas.

Shu fikrlardan kelib chiqib, biz tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish manbalarini quyidagi yo'nalishlarda guruhlashimiz mumkin:

a) Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish – binolar qurish, uskunalar sotib olish, texnologiyalarga sarmoya.

b) Ishlab chiqarish uchun zarur zaxira va tovarlarni moliyalashtirish kundalik faoliyat uchun zarur bo'lgan mablag'lar.

Yana bir e'tiborga molik yondashuv – moliyaviy manbalarni risk darajasiga qarab baholash. Masalan, ba'zi manbalar deyarli risksiz: taqsimlanmagan foyda, amortizatsiya ajratmalari, yuqori tashkilotlardan maqsadli ajratilgan mablag'lar shular jumlasidan. Ular hisobiga moliyaviy barqarorlikni ta'minlash nisbatan oson bo'ladi. Boshqalari esa – xorijiy investitsiyalar yoki qimmatli qog'ozlar emissiyasi kabi – ko'proq risk talab qiladi, ammo daromadni ham oshirishi mumkin.

Bu yondashuv tadbirkorlik subyektlari uchun qanday moliyalashtirish yo'nalishlari xavfsiz va

²Terebova S.V., Podolyakin O.V., Usnov V.S. Predprinimatelstvo v regione: sostoyanie, perspektivi. Izd.: ISERT RAN, 2011.

qaysilari foydaliroq ekanini anglashda muhim ahamiyatga ega.

O'tish iqtisodiyotini boshdan kechirayotgan davlatlarda moliyaviy resurslar yetarli emas. Shu sababli, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni mustahkamlashda davlat aralashuvisiz bu ishlarni hal qilish deyarli imkonsiz. Chunki qonunchilikni ishlab chiqish, moliyaviy infratuzilmani yaratish va faoliyat yuritish uchun zarur sharoitlarni ta'minlash – bularning barchasi davlat vakolatiga kiradi.


Tadbirkorlik subyektlarini to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish shakli esa – ya'ni bevosita ko'mak ko'rsatish ayniqsa kapital qo'yimalarni jalb qilish va aylanma mablag'lar ehtiyojini qoplashda qo'l keladi.

Bugungi kundagi amaliyotda bu bevosita moliyalashtirishning uch asosiy turi mavjud. Ularning eng keng tarqalgani – bu kreditlash. Kredit – bu kichik korxona yoki xususiy tadbirkorga beriladigan qarz mablag'i bo'lib, uni olishda muayyan shartlar mavjud: pulni maqsadli ishlatish, uni belgilangan muddatda qaytarish, ta'minot ko'rsatish va albatta, foizlar bilan to'lash.

Kichik biznesni kreditlashning bir qator ijobiy tomonlari bor:

- Eng avvalo, kerakli miqdorda katta hajmdagi mablag'larni jalb qilish imkoniyati mavjud bo'ladi.
- Undan foydalanish samaradorligini kredit tashkilotlari doimiy kuzatib boradi, ya'ni tashqi nazorat kuchli.
- Kreditlar boshqa moliyalashtirish shakllari bilan solishtirganda ko'proq raqobatbardosh – ular bozor mexanizmlariga moslashgan.

Ammo shu bilan birga, bu usulni qo'llashda risklar va cheklovlar ham mavjud bo'lishi mumkin. Aynan shuning uchun bu mexanizm doimiy takomillashtirib borilishi kerak. Ayniqsa, iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan davlatlarda bu juda muhim.



Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish uslublari va shakllari tavsifi³

Ayni vaqtda, kichik biznes subyektlari faoliyatini yanada rivojlantirish faoliyatini yanada rivojlantirish, uning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'rne va ahamiyatini yanada oshirish ular faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

³ I.A.Alimardonov. "Kichik biznes subyektlarni kreditlash: nazariya va amaliyot. Monografiya: -T.: Iqtisod-Moliya, 2017.-b-17

Kichik biznes subyektlari faoliyatini moliyalashtirishning muhim manbalaridan biri, tijorat banklarning kreditlari hisoblanadi. N.Husanovning fikriga ko'ra, kichik biznes subyektlarining investitsion xarajatlarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish, ular faoliyatini kengaytirish hamda uni texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirishning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi.

Shu sababli, respublikamizda kichik biznes subyektlarini kreditlashga, shu jumladan, ularga berilayotgan uzoq muddatli kreditlar berishga bank tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda⁴.

Kichik biznesni kredit bilan ta'minlash deganda, ularga ma'lum muddatga, ma'lum shartlar asosida – ya'ni haq evaziga – pul yoki tovar ko'rinishidagi mablag'lar berilishi tushuniladi. Bunda asosiy tamoyil oddiy: olganingni va'da qilingan vaqtda, foizi bilan qaytarasan.

Bu jarayonda har doim ikki tomon bo'ladi. Biri – qarz beruvchi, ya'ni pul egasi. Ikkinchisi esa – pulga ehtiyoji bor, qarz oluvchi. Bu ikki tomonning manfaatlari kelishuvda to'qnashadi, ammo har ikkisi uchun ham muhim ehtiyojlarni qondiradi. Kredit olish bilan kichik biznes zarur moliyaviy vositalarga ega bo'ladi, qarz beruvchi esa foyda oladi.

Kredit munosabatlari doim tovar yoki pul mablag'larini ma'lum vaqt ichida qaytarish, ustiga qo'shimcha to'lov (foiz) qilish sharti bilan tuziladi.

Kredit muddatiga qarab esa bu mablag'lar uchta asosiy turga bo'linadi:

1. **Qisqa muddatli kreditlar** – muddati bir yilgacha bo'lgan qarzlar.
2. **O'rta muddatli kreditlar** – bir yildan uch yilgacha bo'lgan davrni qamrab oladi.
3. **Uzoq muddatli kreditlar** – uch yildan ortiq muddatga beriladi.

Xalqaro moliyaviy amaliyotda esa muddat tasnifi biroz boshqacharoq. Masalan, bir yildan besh yilgacha berilgan kreditlar o'rta muddatli deb qaraladi. Besh yil va undan ortiq muddatga berilganlar esa uzoq muddatli kreditlar hisoblanadi.

Yurtimizda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda aynan shunday kreditlar muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq bu kreditlarning shartlari, tavakkal darajasi, ta'minoti kabi jihatlar har doim diqqat bilan baholanishi zarur.

Kredit aloqalari pul egasi bilan qarz oluvchi o'rtasida bevosita va bilvosita bo'lishi mumkin. Birinchi holda ular to'g'ridan-to'g'ri muomalaga kirishadi. Ikkinchi holda ular aloqachi vositachilar orqali yuz beradi. Shunga qarab, kreditning quyidagi asosiy shakllari kelib chiqadi:

- bank krediti.
- davlat krediti.
- xalqaro kredit.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari o'zlarini moliyaviy taminlashda doimo tashqi manbalarga muhtoj bo'ladilar. Ho'sh pul mablag'larini qayerdan olish mumkin? Moliyaviy ta'minotning imkonli manbalari quyidagilardir:

- tijorat banki

⁴ I.A.Alimardonov."Kichik biznes subyektlarni kreditlash:nazariya va amaliyot .monografiya:-T.:Iqtisod-Moliya ,2017.-b-12.

- moliyaviy kompaniyalar;
- investitsion kompaniyalar;
- investitsion fondlar;
- kredit idoralari;
- xaridorlar;
- mahsulot beruvchilar;
- do'st va tanishuvlar;
- xayriya tashkilotlari;
- trans kompaniyalar va banklarning trust bo'linmalari;
- davlat, xalqaro va jamiyat tashkiloti va idoralar, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash dasturida ishtirok etuvchilar (ularning markaziy va mahalliy idoralari);
- ishlovchilar;
- dastgoh ishlab chiqaruvchilar;
- sug'urta kompaniyalari;
- nafaqa fondlar;
- xususiy investorlar;
- moliyaviy maslahatchilar.

Biznesning asosini, shuningdek, uning kichik ko'rinishlarini moliyaviy sarmoyalar va moliyaviy zaxiralar tashkil qiladi. Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy zaxiralarini uning ixtiyorida bo'lgan pul vositalari tashkil qiladi. Ular xo'jalik faoliyatining turli tarmoqlariga yuboriladi: vositachi va moliyaviy xizmatlar, savdo-sotiq xizmatlari, investitsiya va innovatsiya loyihalari. Naqd pulning yetishmovchiligi kichik biznes istiqbolini, uni hayot topish ehtimolini, uning moliyaviy epchilligini pasaytiradi va sinishiga olib keladi. Chunki yetarli miqdorda naqd pulning bo'lmasligi banklarni qarz bermasligiga olib keladi.

Xo'jalik faoliyatini rivojlantirish uchun ishlatiladigan moliyaviy zaxiralar (xomashyo sotib olish, yarim tayyor mahsulotlar, mehnat uskunolari, ishchi kuchi) pul ko'rinishidagi sarmoyadir. Shunday qilib, moliyaviy menejmentda tavsiflanishi bo'yicha sarmoya bu moliyaviy zaxiraning bir qismidir. Rivojlanish siklining qaysi davrida bo'lmasin, sarmoyalar bilan taminlanish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun doimo zarur.

Mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar o'zining ilk natijalarini ko'rsatayotganini ta'kidlash joiz. Ish o'rinlarini tashkil qilishda, birinchi navbatda, tarmoq dasturlarini amalga oshirish, korxonalarni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash, ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni chuqurlashtirish, transport va kommunikatsiya qurilishini, ijtimoiy va bozor infratuzilmasini jadal rivojlantirish, aholi punktlarini obodonlashtirishlarini kengaytirish masalalari muhim o'rin tutadi va bu sohalarda ish bilan ta'minlash belgilangan.